

**O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, Jamoat xavfsizligi masalalari ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi, Yo‘l harakati xavfsizligi muammolarini o‘rganish markazi huzuridagi ilmiy darajalarini beruvchi DSc.32/05.05.2023.Yu.74.03 raqamli muassasalararo ilmiy kengash**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

**ANVAROV TURDIMUROD ANVAROVICH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PROBATSIYA XIZMATI FAOLIYATINI  
TAKOMILLASHTIRISH: TASHKILY-HUQUQIY JIHLARI**

**12.00.14 – Huquqbuzarliklar profilaktikasi. Jamoat xavfsizligini ta‘minlash. Probatsiya faoliyati**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2024 yil**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)**

**UDK 343.85.07.(575.1)**

**Anvarov Turdimurod Anvarovich**

O‘zbekiston Respublikasi Probatsiya xizmati faoliyatini takomillashtirish:  
tashkiliy-huquqiy jihatlari.....3

**Анваров Турдимурод Анварович**

Совершенствование деятельности службы Пробации Республики Узбекистан:  
организационно-правовые аспекты.....21

**Anvarov Turdimurod Anvarovich**

Improving the activities of the Probation service of the Republic of Uzbekistan:  
organizational and legal aspects .....41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, Jamoat xavfsizligi masalalari ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi, Yo‘l harakati xavfsizligi muammolarini o‘rganish markazi huzuridagi ilmiy darajalarini beruvchi DSc.32/05.05.2023.Yu.74.03 raqamli muassasalararo ilmiy kengash**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

**ANVAROV TURDIMUROD ANVAROVICH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PROBATSIYA XIZMATI FAOLIYATINI  
TAKOMILLASHTIRISH: TASHKILY-HUQUQIY JIHLTLARI**

**12.00.14 – Huquqbuzarliklar profilaktikasi. Jamoat xavfsizligini ta‘minlash. Probatsiya faoliyati**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2024 yil**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Yu1268-raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.mgjxu@umail.uz](mailto:www.mgjxu@umail.uz)) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Selimanova Svetlana Mixaylovna**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Ismailov Isomidin**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Saitqulov Qodirali Abdusalimovich**  
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti**

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, Jamoat xavfsizligi masalalari ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi, Yo‘l harakati xavfsizligi muammolarini o‘rganish markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.32/05.05.2023.Yu.74.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_. \_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100211, Toshkent v., Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel.: (99871) 230-32-71; faks: (99871) 230-32-82; [www.mgjxu@umail.uz](mailto:www.mgjxu@umail.uz)).

Dissertatsiya bilan Jamoat xavfsizligi universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( \_\_\_-raqami bilan ro‘yxatga olingan) Manzil: 100211, Toshkent v., Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel./faks: (+99871) 230-32-71.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_-raqamli reestr bayonnomasi).

**D.M. Mirazov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

**M.I. Maxsarov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

**I.Yu. Fazilov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda jinoiy jazolarni ijro etishga yangicha yondashuvlar keng qo'llanilmoqda. Jumladan, BMTning 1990 yil 14 dekabrda qabul qilingan "Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan choralarni qo'llash bo'yicha minimal standart qoidalar" to'g'risidagi 45/110-sonli rezolyusiyasi<sup>1</sup> hamda Yevropa penitensiar qoidalari<sup>2</sup>da muqobil jazo turlarini davlat tomonidan kengaytirish va qo'llab-quvvatlash zarurligi global miqyosda etirof etilmoqda. Hozirda, dunyo bo'yicha jazoni o'tash muassasalarida 11 mlndan ortiq shaxslar saqlanmoqda. Bu ko'rsatkich har yiliga bir foizga oshib bormoqda<sup>3</sup>. Shu bois, ko'p davlatlarda so'nggi yillarda jinoyatlar uchun jazo tayinlashda jamiyatdan ajratish bilan bog'liq bo'lmagan muqobil jazolar va boshqa jinoiy-huquqiy ta'sir choralarni qo'llash hamda probatsiya institutini yanada takomillashtirish va huquqiy tartibga solish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Jahonda jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligiga qarab jinoiy jazolarni tayinlashda shaxsni jamiyatdan ajratmaslik, ma'naviy eskirgan qiynoqqa soluvchi qamoq kabi jazo choralari barxam berish, retsidiv jinoyatchilikni kamaytirish sohalarida tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, yopiq turdagi jazoni ijro etish koloniyalarida saqlanayotgan mahkumlarning huquqlarini buzulishi va mahkumlarni saqlash uchun sarflanadigan moliyaviy xarajatlar va chiqimlarning qiymatini hisobga olib, probatsiya institutining yangi zamonaviy tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini yaratish, probatsiyaning ijtimoiy funksiyalarini kengaytirish hamda yanada samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizning jinoyat-ijroya tizmini isloh qilishda, xalqaro standartlarga mos ravishda mahkumlarning huquqlarini yanada kengaytirish borasida bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoyat-ijroiya qonunchilikni takomillashtirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tizimiga insonparvarlik tamoyilini keng joriy etish<sup>4</sup>, borasidagi hamda "O'zbekiston-2030" strategiyasida ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlash amaliyotini 30 foizdan 20 foizga tushirish<sup>5</sup> kabi ustuvor vazifalarni belgilanganligi, jinoiy jazolarning ijrosini ta'minlash va shartli hukm qilinganlar hamda muddatidan ilgari ozod qilingan shaxslar ustidan ta'sirchan nazoratni amalga oshirish bilan bog'liq probatsiya instituti faoliyatini takomillashtirishga oid tadqiqotlar olib borilishni taqozo etmoqda.

---

<sup>1</sup> Минимальные стандартные правила Организации Объединенных Наций в отношении мер, не связанных с тюремным заключением [Токийские правила]: [https://www.un.org/ru/documents/decl\\_conv/conventions/tokyo\\_rules.shtml](https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/tokyo_rules.shtml).

<sup>2</sup> Европейские пенитенциарные правила Комитета Министров. – М., 2016. – 136 с.

<sup>3</sup> <https://cdn.penalreform.org/wp-content/uploads/2022/04/Global-Prison-Trends-2020-RUSSIAN.pdf>

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/584106>

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/6600413>

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi (1994), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-noyabrdagi PQ-4006-son “Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-maydagi 346-son “Majburiy jamoat ishlari tariqasidagi jazoning ijrosini tashkil etish tartibi haqidagi nizomni hamda Majburiy jamoat ishlari turlarining ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi hamda 2020-yil 14-fevraldagi 84-son “Ichki ishlar organlari probatsiya xizmati faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, Ichki ishlar vazirligining 2022-yil 19-fevraldagi 42-son “Jamoat havfsizligi departamenti Probatsiya xizmatiga yangi ish uslublarini tatbiq etish to‘g‘risida”gi buyrug‘i va sohaga doir boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi<sup>1</sup>.** Jinoiy jazolarni ijro etish faoliyati, shu jumladan jinoiy jazolarning profilaktik funksiyasi va probatsiya xizmati faoliyatining ayrim jihatlari M.X.Rustambayev, Yu.S.Pulatov, I.Ismailov, B.U.Tadjixonov, D.M.Mirazov, Yu.Fazilov, M.M.Ziyodullaev, J.S.Muxtorov, R.N.Raxmanov, N.S.Salaev va T.A.Altmishev kabi olimlarning ilmiy-nazariy ishlarida o‘rganilgan.

MDHga a‘zo mamlakatlar olimlaridan Borzenko Yu.A “Penitensiarное i parvo soznaniye v Rossiyskom obshestve: sovremennoye sostoyaniye i problemie razvitiya”, Gabaraev A.Sh “Penitensiarная медиация как инструмент совершенствования уголовно-исполнительной политики Российской Федерации”, Novikov A.V “Анализ взаимодействия ФСИН системы постпенитенциарной и адаптированной к РФ на примере ФГУ «Мужская воспитательная колония»”, Baluev Ye.N., Dvoryanskov I.V., Sergeeva V.V “Применение альтернативных видов наказания в Западной Европе, США и России (сравнительно-правовое исследование)”, Batalin D.Ye., Anisimkov V.M., Ugolnikova N.V, Petrenko N.I., Bagreeva Ye.G., Levchenko V.N., Baranov Yu. V., Vitviskaya S. S., Osadchaya N. G., Batanov A.N., Kelina S.G., Kostyuk M. F., Noskov O. S., Sadikov A.U., Akkulev A.Sh “Otdelnye voprosy probatsiy”, Mixlin A.S., Noyanova O.Ye., Yakovleva L.V., Kozochkina I.D., Raximberdin K.X., Geta M.R., Mirzalimov R.M., Djamankulov M.T “Stanovlenie instituta probatsii v Kirgizskoy Respublike” va boshqalar tomonidan muqobil jazoni ijro etish va probatsiya masalalari tadqiq etilgan.

Xorijiy olimlar Samuel H. Pillsbury “Understanding Penal Reform: The Dynamic of Change”, Vogel Brenda, Drucker Ernest, Chomil Kamal “The

---

<sup>1</sup> Mazkur olimlar ishlarining to‘liq ro‘yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan

Probation Service in Singapore”, Dunkel F., Austin Mac Cormick “The Prisons Rolening Crimen Preventio”, Bishop Norman va boshqalar tomonidan probatsiyada sinov davri, jazoni ijro etishda probatsiyaning o‘ziga xos jihatlari yoritilgan.

Biroq mamlakatimizda probatsiya faoliyatini huquqiy takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari kompleks tarzda alohida monografik tadqiqot darajasida ko‘rib chiqilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan ilmiy-tadqiqot rejasining “O‘zbekiston Respublikasi Probatsiya xizmati faoliyatini takomillashtirish: tashkiliy-huquqiy jihatlari” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O‘zbekiston Respublikasi probatsiya xizmati faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

O‘zbekiston Respublikasi Probatsiya xizmati faoliyatining huquqiy tavsifi: tushunchasi, mohiyati, ahamiyati va o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish;

O‘zbekistonda Probatsiya xizmati faoliyatini huquqiy asoslarini shakllanishi va rivojlanishini tadqiq etish;

probatsiya xizmatining huquqiy maqomi va faoliyatining tashkil etish tartibini o‘rganish;

probatsiya xisobidagi shaxslarni nazorat qilishning tashkiliy-huquqiy asoslari tahlilini amalga oshirish;

probatsiya xizmatining boshqa davlat organlari va jamoatchilik tuzilmalari bilan hamkorligini tashkil etishni o‘rganish;

probatsiya xizmati faoliyatini tashkiliy-huquqiy ta'minlash bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasi va uni milliy qonunchilikka joriy etish yuzasidan takliflar tayyorlash;

probatsiya xizmati faoliyatining tashkiliy va huquqiy asoslarini takomillashtirish yo‘llari bo‘yicha tavsiyalar shakllantirish.

**Tadqiqotning obyektini** O‘zbekiston Respublikasi Probatsiya xizmati faoliyati bilan bog‘liq ijtimoiy huquqiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmetini** O‘zbekiston Respublikasi Probatsiya xizmati faoliyati bilan bog‘liq ijtimoiy-huquqiy hujjatlar va ularni qo‘llash amaliyoti, ayrim xorijiy davlatlar qonunchiligi hamda amaliyotidagi tajribasi, probatsiya institutini rivojlantirishga doir xalqaro standartlar, shuningdek, o‘rganilayotgan mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar, konseptual yondashuvlar va g‘oyalar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida mantiqiy, jazoni ijro etish faoliyatida probatsiyaning tarixiy rivojlanish davrini tadqiq etish, qiyosiy-huquqiy, statistik, qonunni qo‘lash amaliyotini o‘rganish, sotsiologik so‘rov o‘tkazish kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy-maishiy ta'minlash va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari va vazifalari etib bandlikka ko'maklashish, sog'liqni saqlash, mahalla, yoshlar ishlari agentligi va boshqa mas'ul tuzilmalarning funktsiya va vakolatlarini aniq chegaralash, ular hayotining sifati hamda darajasini oshirish kabilarni belgilash zarurati asoslab berilgan;

ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoga hukm qilingan shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini hamda shart-sharoitlarini aniqlash, bartaraf etish, shuningdek, mazkur shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha maxsus tadbirlarni ishlab chiqishda probatsiya xizmati va huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatining hududiy bo'linmasi xodimlari (katta) inspektorini o'zaro hamkorlik qilish amaliyotini joriy etish orqali probatsiya nazoratidagi shaxslarni tizimli va samarali nazorat qilish asoslab berilgan;

mahalliy davlat hokimiyati organlarining vazifasi etib ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy moslashtirish va reabilitatsiya qilish jarayoniga davlat organlari va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida davlat-xususiy sherikchilik tizimini tatbiq etishni belgilash asoslab berilgan;

“probatsiya” tushunchasiga “muayyan huquqdan mahrum qilish, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash tarzidagi jazolarning ijro etilishini ta'minlashga, mahkumlarga ijtimoiy-huquqiy va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish hamda ularga barham berishga, huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablarini va ularga imkon beradigan shart-sharoitlarni aniqlashga, bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui”dir mazmunida mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

mualliflik yondashuvi asosida "probatsiya" va "probatsiya faoliyati" tushunchalariga mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan;

ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy moslashtirishga mas'ul tuzilmalar faoliyatining institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, ularning vazifa, funktsiya va vakolatlarini aniq chegaralashni ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy-maishiy ta'minlash va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari va vazifalaridan biri sifatida belgilash asoslab berilgan;

mahalliy davlat hokimiyati organlarining ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy moslashtirish bilan bog'liq vazifalarini belgilash asoslab berilgan;

“O'zbekiston Respublikasining Probatsiya xizmati to'g'risida”gi qonun loyihasiga ichki ishlar organlarining probatsiya sohasidagi faoliyatini tartibga solish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida “yurist” malakasini beruvchi “Jazoni ijro etish faoliyati” va “yurist-psixolog” malakasini beruvchi “Probatsiya faoliyati” ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklari)ni joriy etish zarurligi asoslantirilgan;

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 7, 46, 72, 73 va 74-moddalariga, shuningdek, Jinoyat-ijroiya kodeksining 178-moddasiga o‘zgartirish hamda qo‘shimchalar kiritish zarurati asoslab berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot doirasida xalqaro huquq normalari, milliy normativ-huquqiy hujjatlar, xorijiy davlatlar tajribasi, ichki ishlar organlari faoliyatidagi materiallar, jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyotiga oid 2022-2023 yillarda chiqarilgan sud hukmlari, ajrimlari va statistika ma’lumotlar hamda Ichki ishlar organlari jamoat xavfsizligi xizmati probatsiya soxasiga bog‘liq muammolar yuzasidan 250 nafar xodimlar va probatsiya hisobidagi shaxslar o‘rtasida so‘rov o‘tkazilganligi, dissertatsiya ishida foydalanilgan materiallar belgilangan tartibda rasmiylashtirilib, ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar sinovdan o‘tkazilib, natijalari yetakchi xorijiy va milliy jurnallarda chop etilganligi, o‘rganish natijalari vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanib, amaliyotga joriy etilganligida belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot ishida, asosan ilmiy-nazariy xulosalar, takliflar va tavsiyalarni kelgusidagi ilmiy faoliyatda, qonunlarni norma ijodkorligida, huquqni qo‘llash amaliyotida, jinoyat va jinoyat-ijroiya qonunlarining tegishli normalarini takomillashtirishda, milliy qonunchilikni mustahkamlashda hamda qonunni qo‘llash amaliyotini rivojlantirishda, shuningdek, hamda “Jinoyat huquqi”, “Jinoyat-ijroiya huquqi”, “Jazoni ijro etish faoliyati”, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi” kabi fanlarni ilmiy-nazariy boyitishda namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, probatsiya shakillari yani sudgacha bo‘lgan, tergov harakatidagi shaxslarning nazorat qilishdagi faoliyatni qamrab olish hamda probatsiya hisobidagi shaxslarni nazorat qilishining samarali va ta’sirchan mexanizmlarini joriy etishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O‘zbekiston Respublikasi Probatsiya xizmati faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy moslashtirishga mas’ul tuzilmalar faoliyatining institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, ularning vazifa, funktsiya va vakolatlarini aniq chegaralash, shuningdek, ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy moslashtirish, shu jumladan, ular hayotining sifati va darajasini oshirish kabilarni ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy-maishiy ta’minlash va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari va vazifalari etib belgilash yuzasidan takliflar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-iyuldagi 543-son “Ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy-maishiy ta’minlash va ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorining 2-qismi, 3 va 4-xatboshini ishlab chiqiqshda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 9-noyabrdagi 12-15-106-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish tizimini takomillashtirishga xizmat qilgan;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan va ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoga hukm qilingan shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini hamda shart-sharoitlarini aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, ushbu shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha maxsus tadbirlarni ishlab chiqishda probatsiya xizmati va huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatining hududiy bo'linmasi xodimlari (katta) inspektorini o'zaro hamkorlik qilish amaliyotini joriy etish yuzasidan takliflar O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2022 yil 19 fevral kunidagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash departamenti Probatsiya xizmati faoliyatiga yangi ish uslublarini tatbiq etish to'g'risida"gi 42-sonli buyruq bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Probatsiya xizmati to'g'risidagi nizomni 6-bobi, 23-qismi, 2 va 3-xatboshini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2022-yil 12-dekabrda №1-xulosasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi probatsiya xizmati va huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatining hududiy bo'linmasi xodimlari (katta) inspektorini o'zaro hamkorlikda probatsiya nazoratidagilarning xulq-atvorini nazorat qilish, shuningdek, yangi jinoyat sodir etishining oldini olish borasidagi faoliyatini takomillashtirishga xizmat qilgan;

ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy moslashtirish va rehabilitatsiya qilish sohasidagi ishlarni amalga oshirish doirasida davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida ijtimoiy sherikchilikni rivojlantirish, shuningdek, ushbu shaxslarni rehabilitatsiya qilish jarayoniga xususiy sektor vakillarini keng jalb etish orqali ularga tegishli imtiyozlar berishni nazarda tutuvchi davlat organlari va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida davlat-xususiy sherikchilik tizimini rivojlantirishga oid takliflar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-iyuldagi 543-son "Ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy-maishiy ta'minlash va ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorining 2-qismi, 5 va 6-xatboshini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 9-noyabrdagi 12-15-106-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish bo'yicha mahalliy davlat hokimiyati organlarining vazifalarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

"probatsiya" tushunchasiga "muayyan huquqdan mahrum qilish, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash tarzidagi jazolarning ijro etilishini ta'minlashga, mahkumlarga ijtimoiy-huquqiy va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish hamda ularga barham berishga, huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablarini va ularga imkon beradigan shart-sharoitlarni aniqlashga, bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui" mazmunida ta'rif berish yuzasidan takliflar O'zbekiston Respublikasining "Probatsiya to'g'risida"gi qonunining 3-moddasi 2-xatboshini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2022-yil 12-dekabrda №2-xulosasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi probatsiya tushunchasi bilan bog'liq munosabatlar doirasini belgilashga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 14 ta, jumladan dissertatsiyaning asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan 1 ta monografiya hamda 7 ta OAK ro'yxatidagi ilmiy jurnallar (shundan, 2 tasi xorijiy jurnallar)da maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, yetti paragrafni o'z ichiga olgan, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Ishning hajmi 134 bet.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Dissertatsiyaning kirish (dissertatsiya annotatsiyasi)** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'yekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“O'zbekiston Respublikasida probatsiya xizmati faoliyatining nazariy va huquqiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida probatsiya xizmati faoliyatining huquqiy tavsifi, uning tushunchasi, mohiyati, ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari hamda O'zbekistonda probatsiya xizmati faoliyatini huquqiy asoslari tahlil qilingan.

Birinchi bobning *“Probatsiya xizmati faoliyatining huquqiy tavsifi: tushunchasi, mohiyati, ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari”* nomli birinchi paragrafida probatsiya xizmati bo'yicha AQSh, Daniya, Shvesiya, Finlandiya, Moldova, Ukraina, Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston va boshqa davlatlarning tajribasi qiyosiy huquqiy tahlil qilingan.

Tadqiqot ishida A.K.Isergepova, I.Tyajkova, Vogel, Drucker, I.V.Dvoryanskov, V.V.Sergeeva, D.Ye.Batalin, N.V.Ugolnikova, N.I.Petrenko, A.A.Ignatev, V.M.Anisimkov, V.V.Talyanin, Ye.G.Bagreeva, Sh.A.Xo'jaev, D.Kamalov, B.Sultonov, va boshqa olimlarning probatsiya tushunchasi, uning mohiyati, ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan nazariy qarashlari tahlil qilingan.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarida “probatsiya”, “probatsiya xizmati” va “probatsiya nazorati” atamaları huquqiy termin sifatida hanuzgacha qo'llanilmagan. Hozirgi amaliyotda Ichki ishlar vazirligi probatsiya xizmati tomonidan muayyan huquqdan mahrum qilish, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash kabi jinoiy jazo choralari ijro etilmoqda.

Probatsiya tuzilmalarining institutsional modeli tarixiy rivojlanish jarayonida beshta shakilda takomilashgan:

- 1) Ichki ishlar vazirligi tizimidagi probatsiya;
- 2) Adliya vazirligi tizimidagi probatsiya;
- 3) jazolarni ijro etish tizimi birlashtirilgan Adliya va ichki ishlar (politsiya) vazirligi boshqaruvi ostida bo‘lgan probatsiya;
- 4) alohida davlat departamentining tarkibida bo‘lgan probatsiya;
- 5) jazolarning turlari yoki protsessual majburlov choralari turli idoralarning ixtiyoriga berilgan aralash probatsiya shaklida rivojlangan.

Shuningdek, Amerika Qo‘shma Shtatlarida Probatsiya xizmatining umumiy boshqaruvi AQSh Oliy sudining ma‘muriy idorasi tomonidan va mahalliy sudlar tomonidan amalga oshiriladi. Buyuk Britaniyada Adliya vazirligi oldida hisobdor bo‘lgan huquqbuzarlarni davolash bo‘yicha milliy xizmat tomonidan amalga oshiriladi, GFRda Probatsiya instituti sud tizimida probatsiya bo‘yicha sudyaning yordamchisi shaklida tarkibiy tuzilishga ega.

Rivojlangan xorijiy davlatlarning probatsiya xizmati faoliyati hamda amaliy tajribasi o‘rganilganda, probatsiya xizmatining asosan sudgacha probatsiya, penitensiar probatsiya, ijroiya probatsiya va postpenitensiar probatsiya kabi to‘rt shakli mavjud.

Bobning *“O‘zbekistonda Probatsiya xizmati faoliyatini huquqiy asoslari”* nomli ikkinchi paragrafida probatsiya xizmati faoliyatini huquqiy tartibga soluvchi asoslar, xususan Jinoyat-ijroya kodeksi hamda ushbu yo‘nalishni tubdan takomillashtirishga qaratilgan qonun osti hujjatlari qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan.

Dissertantning fikricha, Jinoyat kodeksining 72-moddasida shartli hukm qilish va 73-moddasida jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish hamda 74-moddasida jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish bilan bog‘liq huquqiy normalar belgilangan bo‘lsada, jazo choralari yoki yengilroq jazo bilan almashtirilgan shaxslarni jazosini o‘tashlarini ta‘minlovchi organ majburiyatlari, prinsiplari va mexanizmlari to‘liq kodeksning mazkur moddalarida ko‘rsatilmagan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston Respublikasida probatsiya xizmati faoliyatining tashkiliy asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekiston Respublikasi probatsiya xizmatining huquqiy maqomi va faoliyatining tashkil etish tartibi, probatsiya hisobidagi shaxslarni nazorat qilishning tashkiliy-huquqiy asoslari hamda probatsiya xizmatining boshqa davlat organlari va jamoatchilik tuzilmalari bilan hamkorligini tashkil etish bilan bog‘liq masalalar ilmiy tahlil qilingan.

Ushbu bobning *“O‘zbekiston Respublikasi Probatsiya xizmatining huquqiy maqomi va faoliyatining tashkil etish tartibi”* nomli birinchi paragrafida I.Yu.Fazilov, M.Nazarov, M.M.Xaydarov, S.A.Xodjaliev, J.Ma‘murov, Yu.Xodjiev, V.A.Utkin, S.S.Vitviskaya, N.G.Osadchaya, S.M.Zubarev, S.V.Romanova, I.Ruziev kabi olimlarning probatsiya xizmatining huquqiy maqomi bilan bog‘liq nazariy qarashlari, shuningdek, jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomalada bo‘lish bo‘yicha BMT minimal standart qoidalari tahlil qilingan.

Jahonda qamoqxonalar indeksiga ko‘ra (yoki «qamoqxonalar aholisi» indeksi), har yili qamoqda saqlanayotgan shaxslarning soni ekspert doiralarda «World Prison

Brief»<sup>1</sup> ochiq manbasi orqali muhokama qilinadi. Ushbu ko'rsatkichni pasaytirishga intilgan holda, ko'plab xalqaro hujjatlarda «qamoqqa muqobil jazo choralari joriy etishdagi huquqiy to'siqlarni bartaraf etish maqsadida, qonunchilikni qayta ko'rib chiqish zarurligiga»<sup>2</sup> e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, shunday choralarga oid minimal standart qoidalar (Tokio qoidalari) 1990 yilgi Birlashgan Millatlar Tashkilotining muqobil jazolardan foydalanishga rahbarlik qiluvchi asosiy xalqaro hujjatlarda ham belgilangan. Shu sababli hozirda mamlakatimizdagi jazoni ijro etish muassasalarida jazo mudatini o'tayotgan shaxslardan ko'ra ko'proq shaxslar 2023 yil dekabr oyi yakunida **77 000** nafar shaxs ichki ishlar organlari probatsiya bo'linmalari tomonidan nazorat ostiga olingan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 43-moddasida muqobil jazolarning ichki izchil tizimini yaratish kerak. Muqobil jazolarning tizimi ahloqan tuzatish qobiliyati va profilaktik xususiyatlarga ega bo'lgan jazo turlari majmuasidan iborat bo'lishi kerak.

Tahlillarga ko'ra, Probatsiya xizmati tomonidan ozodlikni cheklash tarzidagi jazoni ijro etishda quyidagi muammolar yuzaga kelmoqa:

1) Probatsiya xizmati xodimlarining ish yuklamasi kattaligi o'z funksiyalarini bajarish sifatiga salbiy ta'sir qiladi;

2) elektron kuzatuv tizimi yaratilmaganligi (shu jumladan, zarur jihozlarni sotib olish va o'rnatish, xodimlarni o'qitish) yuqori xarajatlari, shuningdek, uskunalarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash uchun doimiy xarajatlarni talab etadi.

Sudlar so'nggi yillarda ozodlikdan cheklash jazoni qo'llashda ancha faollashmoqda. Jumladan, 2021 yilda ozodlikni cheklashga mahkum etilgan **9 767** kishi (shartli ravishda hukm qilingan 1 056 kishi) probatsiya xizmatida ro'yxatga olingan, 2016 yilda esa tegishli ravishda **2 520** (shartli ravishda hukm qilingan 03 737) kishi bo'lgan edi<sup>3</sup>.

Dissertantning fikricha, ierarxik jazo zinapoyasida ikkinchi o'rinni **majburiy jamoat ishlari** egallashi kerak. Majburiy jamoat ishlarining aybdorga nisbatan jazolash va qo'rqitish ta'siri bilan emas, balki sudlangan shaxs ustidan probatsiya xizmati va ish beruvchi tashkilotlarning ma'muriyati tomonidan nazorat qilinishi bilan amalga oshiriladi.

Milliy qonunchilikda majburiy jamoat ishlari bir yuz yigirma soatdan to'rt yuz sakson soatgacha bo'lgan muddatga tayinlanadi. Ayni damda, Norvegiyada 30 soatdan 420 soatgacha, Shvesiya va Daniyada 40 soatdan 240 soatgacha, Rossiya, Ozarbayjonda 60 soatdan 240 soatgacha, Latviyada 40 soatdan 280 soatgacha, Polshada oyiga 20 soatdan – 40 soatgacha qilib belgilangan<sup>4</sup>.

---

<sup>1</sup> <http://www.prisonstudies.org/>.

<sup>2</sup> Сборник документов Совета Европы в области защиты прав человека и борьбы с преступностью. <https://rm.coe.int/e-compendium-in-azeri/16806ab9ac> Б. 125

<sup>3</sup> <https://iiv.uz/oz/news/probatsiya-xizmati-dastlabki-bir-yillik-faoliyat-natijalari--va-kelgusidagi-rejalar>

<sup>4</sup> Арипов.А. Мажбурий жамоат ишлари жиноий жазоси (миллий ва хорижий тажриба) // <https://sud.uz/мажбурий-жамоат-ишлари-жиноий-жазоси/>

Tadqiqot ishi doirasidagi o'rganishlarimizdan kelib chiqsak jinoiy jazolar ro'yxatida uchinchi o'rin **axloq tuzatish ishlariga** egalanishi maqsadga muvofiq (Jinoyat kodeksining 46-moddasi).

Probatsiya xizmatining axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazosini ijro etish faoliyatidagi navbatdagi muammo sifatida ushbu jazoning ish joyiga ega bo'lmagan shaxslarga ham tayinlanishi mumkinligini ko'rsatish mumkin. Ish joyiga ega bo'lmagan shaxsga ish haqining belgilangan qismini davlat daromadi hisobiga ushlab qolishni nazarda tutuvchi axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazoning tayinlanishi qator muammolarga sabab bo'ladi.

Jumladan:

1) ish joyiga ega bo'lmagan shaxsga ish topish;

2) probatsiya bo'linmalarining xodimlarida ishga joylashtirish bilan bog'liq vakolatlarning mavjud emasligi. Ayni vaqtda probatsiya bo'linmalarining xodimlarida ishga joylashtirish bilan bog'liq vakolatlarning bo'lishi ham bugungi islohotlar ruhiga to'g'ri kelmaydi. Mahkumning sud tomonidan tayinlangan axloq tuzatish ishlaridan bo'yin tovlashidagi muddat bilan (jami bo'lib o'ndan bir qismidan ko'prog'ini o'tashdan bo'yin tovlagan bo'lishi), shuningdek, ushbu holat rasmiylashtirilganidan so'ng sud axloq tuzatish ishlarining o'talmagan muddatini xuddi shu muddatga ozodlikni cheklash yoki OMQ tariqasidagi jazo bilan almashtirishida ko'rinadi. Jumladan, ushbu holat ikkita muammoda ko'rinadi:

1) axloq tuzatish ishlaridan bo'yin tovlashning aniq mexanizmlarining qonunchilikda aks etmaganligi, faqatgina bo'yin tovlashning muddatlari bilan bog'langanligi, shuningdek o'ndan bir qismidan ko'prog'ini o'tashdan bo'yin tovlaganlik muddatlarining har-xilligi;

2) mahkumning axloq tuzatish ishlaridan bo'yin tovlaganligi rasmiylashtirilgandan keyin axloq tuzatish ishlarining o'talmagan muddatini xuddi shu muddatga bir-birlariga og'irligi nuqtai-nazaridan to'g'ri kelmaydigan ozodlikni cheklash yoki OMQ tariqasidagi jazoga almashtirilishi mumkinligi va bu inson omiliga bog'liqligi tufayli korrupsion vaziyatni yuzaga kelishiga zamin yaratayotganligi.

Ushbu bobning *“Probatsiya hisobidagi shaxslarni nazorat qilishning tashkiliy-huquqiy asoslari”* nomli ikkinchi paragrafida O'zbekistonda probatsiya xizmatining tashkiliy tuzilishi, respublikadagi jami 215 ta probatsiya xizmati bo'limlari va bo'linma (guruh)lari faoliyati tahlil qilingan.

Hozirda probatsiya xizmatining hisobida bo'lgan nazoratdagi shaxslarning yildan-yilga oshib borishini quyidagi tahlilarimizdan ko'rishimiz mumkin, jumladan, hisobda turgan nazoratdagi shaxslar jami 2018 yil dekabr oyida **49 668** nafar dastlabgi 2019 yil 1 yanvardan ichki ishlar organlari probatsiya bo'linmalari hisobida dekabr oy holatiga **61 053** nafar, 2020 yil dekabrda **57 036**, shuningdek 2021 yil dekabrda **64 540**, 2022 yil dekabr oy holatiga **70 000** nafar, 2023 yil dekabr oyi yakunida **77 660** nafar shaxs nazorat ostiga olingan bo'lsa, bularning barchasi jazoni ijro etish muassasalaridan muddatidan ilgari ozod etilganlar hamda yurtimizda afv akti asosida jazoni ijro etish koloniyalaridan ozod etilib probatsiya hisobiga tushganlar tashkil etadi.

Ammo hozirgi amalyotda probatsiya nazoratdagi shaxslarning ortib borishi natijasida, bir nafar xodimlar o'rtacha hisobda 130-170 ayrim xududlarda 200 nafar nazoratdagi shaxslar to'g'ri kelmoqda, bunday holat nazoratdagi shaxslar bilan ishlashdagi muamolarni yuzaga keltirmoqda (*Nukus shahrida bir nafar xodim 203 (100) nafar, Oqdaryo tumanida esa 176 (75) nafar nazoratdagilar bilan ish olib bormoqda*) (*Dissertatsiyaning 1-ilovasi*).

Probatsiya nazoratidagi shaxslarni jinoiy jazolarni ijro etishda, ularni jamiyat xayotiga moslashtirish hamda ijtimoiylashtirish va qayta jinoyat sodir etilishini oldini olishda avvalo huquqiy, ijtimoiy-pisixologik, pedagogik va profilaktika sohalarida ish tajribasiga ega bo'lgan ofitserlar tarkibidagi malakali xodimlar bilan jamlash maqsadga muvofiq.

Xorijiy mamlakatlarning jinoyat huquqida jinoyat-ijroiya huquqiy xarakterdagi boshqa ta'sir choralari, misol uchun xavfsizlik choralari (Polsha Jinoyat kodeksi), axloq tuzatish va xavfsizlik choralari (Germaniya Jinoyat kodeksi), ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq xavfsizlik choralari (Ispaniya Jinoyat kodeksi), nuqsonli huquqbuzarlarni alohida ajratish, alkogolizmni majburiy davolash, giyohvandlarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish kabilar (AQSh) sifatida belgilanadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 26,3% respondentlar jazoning asosiy turi sifatida tayinlangan axloq tuzatish ishlari va muayyan lavozimlarni egallash yoki muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum etilganlarga nisbatan shartli ravishda OMQ jazosi qo'llanilishi kerak, deb hisoblaydilar (*Dissertatsiyaning 2-ilovasi*).

Shu bilan birga, xodimlarning 12,3 foizi ozodlikni cheklashga hukm qilinganlarga, 17,5 foizi faqat axloq tuzatish ishlari jazosiga hukm qilinganlarga va nihoyat, muayyan jazolardan mahrum qilish jazosiga hukm qilinganlarga nisbatan shartli ravishda muddatidan oldin jazodan ozod qilishni qo'llashni maqsadga muvofiq deb bilishadi. Jazoning asosiy turi sifatida tayinlangan lavozim yoki muayyan faoliyat bilan shug'ullanishdan mahrum qilish jazosidan muddatidan oldin ozod qilishni-10,2% maqsadga muvofiq ko'radi. Shu bilan birga, xodimlarning 75,9 foizi yuqoridagi mahkumlarga nisbatan jazoni o'tashni rag'batlantirish institutini qo'llashda haqiqatda jazoni muddatining yarmini o'tashni, 10,3 foizi - uchdan bir qismini, 11,4% - uchdan ikki qismini o'tash kerak, deb hisoblaydilar.

Demak, xodimlarning aksariyati yuqorida sanab o'tilgan toifadagi mahkumlarga shartli ravishda muddatidan oldin shartli jazoni qo'llash maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar.

Ushbu bobning "*Probatsiya xizmatining boshqa davlat organlari va jamoatchilik tuzilmalari bilan hamkorligini tashkil etish*" deb nomlangan uchinchi paragrafida probatsiya nazoratdagilarni respublika hududida jamoat tuzilmalari hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi, Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika

kengashi va hududiy bo'limlari bilan o'zaro hamkorlik masalalari qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan.

Tadqiqot ishida O'zbekistonda amaldagi JIKda probatsiya xizmati faoliyatini nazorat qilishda jamoatchilikning ishtirokini belgilash zarur. jamoat birlashmalari faoliyatining kuzatuv kengashlari va voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya singari an'anaviy shakllar nazarda tutilmaganligi, buning natijasida huquqiy bo'shliq yuzaga keltirganligi, ta'kidlangan.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda jamoat tashkilotlarining, xususan, jamoatchilik nazorati komissiyalarining axloq tuzatish muassasalari faoliyatidagi roli ortib bormoqda va yildan-yilga ahamiyatli bo'lib bormoqda.

Dissertatsiyaning **“O'zbekiston Respublikasi probatsiya xizmati faoliyatining tashkiliy va huquqiy asoslarini takomillashtirish yo'nalishlari”** deb nomlangan uchinchi bobida probatsiya xizmati faoliyatini tashkiliy-huquqiy ta'minlash bo'yicha xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasi va uni milliy qonunchilikka joriy etish, O'zbekiston Respublikasi probatsiya xizmati faoliyatining tashkiliy va huquqiy asoslarini takomillashtirish yo'llari va istiqbolari tahlil qilingan.

Ushbu bobning *“Probatsiya xizmati faoliyatini tashkiliy-huquqiy ta'minlash bo'yicha xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasi va uni milliy qonunchilikka joriy etish”* nomli birinchi paragrafida Buyuk Britaniya, AQSh, Fransiya, Yaponiya, Shvesiya, Daniya, Finlyandiya, Germaniya, Niderlandiya, Estoniya, Qozog'iston kabi davlatlarning probatsiya xizmatini tashkil etish faoliyati va uning huquqiy asoslarini mazmuni tahlil qilingan.

